



Key ways to develop critical thinking skills in high school students

Shukhratjon ISMOILJONOV ¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

critical thinking,
pedagogical approaches,
interactive methods,
technologies,
senior students,
problem-based learning.

ABSTRACT

This article analyzes the essence of critical thinking, its importance in education and the main methods of its development in details. The article is based on modern pedagogical approaches, technologies and practical exercises. In particular, interactive methods and technologies for the formation of critical thinking in senior students are highlighted. The article contains not only theoretical, but also practical recommendations.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp501-506>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yuqori sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishning asosiy yo'llari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tanqidiy fikrlash,
pedagogik yondashuvlar,
interaktiv metodlar,
texnologiyalar,
yuqori sinf o'quvchilari,
muammoli ta'lim.

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning mohiyati, uning ta'limdagi ahamiyati va rivojlantirishning asosiy usullari batafsil tahlil qilingan. Maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va amaliy mashqlarga asoslangan. Xususan, yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning interaktiv usullari va texnologiyalari yoritiladi. Maqola nafaqat nazariy, balki amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

¹ PhD student, Namangan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: mcsukhrat@gmail.com

Основные пути развития навыков критического мышления старшеклассников

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

критическое мышление,
педагогические подходы,
интерактивные методы,
технологии,
старшеклассники,
проблемное обучение

В статье подробно рассматривается сущность критического мышления, его значимость в образовательном процессе и основные методы его развития. Основное внимание уделено современным педагогическим подходам, инновационным технологиям и практическим занятиям. Особое место занимают интерактивные методы и технологии, направленные на формирование критического мышления у старшеклассников. Материал включает не только теоретическое обоснование, но и практические рекомендации, которые могут быть полезны в образовательной практике.

KIRISH

Bugungi kun ta'lim tizimi uchun tanqidiy fikrlash – zamonaviy dunyo talablari va muammolariga javob beroladigan shaxsni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismidir. Tanqidiy fikrlash faqatgina muammolarni hal qilish yoki tahliliy yondashuv emas, balki mustaqil fikr yuritish, yangi bilimlarni qabul qilish va baholash hamda ular asosida oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy yo'llari – pedagogik usullar, texnologiyalar va amaliy yondashuvlar yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning, ayniqsa til o'rganishning markaziy yo'nalishiga aylandi [7]. Axborotni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish uchun sintez qilish qobiliyati sifatida tavsiflangan tanqidiy fikrlash talabalarning zamonaviy dunyoda samarali ishtirok etishlari uchun juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganish kontekstida bu ko'nikmalarni rivojlantirish nafaqat tilni o'zlashtirish, balki mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham ahamiyatlidir [15].

Tanqidiy bahoga yo'naltirilgan darslar an'anaviy darslardan farq qiladi. Bunday darslarda o'quvchilar faol subyekt sifatida mavzuga ijodiy yondashadilar. Ular matnni o'qiydi, so'zlab beradi, tahlil qiladi, munozara yuritadi va mustaqil fikrlarini bildiradilar. Bu jarayon ularda tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'qituvchi esa muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi.

Chet til o'qitish metodikasida dars mazmuni va shakli muhim o'rin tutadi. Ingliz tili darslari ma'ruza, seminar, kompetensiyaga mos mashg'ulotlar, debatlar, yozma ishlar kabi turlarga ega. Har bir dars turi ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Chet til darslarining turli tipologiyalari tadqiq etilgan bo'lsa-da, o'qitish maqsadlari va metodlarini chuqur o'rganish hali ham dolzarb hisoblanadi. Har bir dars turi o'ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi.

Quyida biz uzluksiz ta'limda foydalanilayotgan darsliklar va o'quv materiallarini umum ta'lim maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarkibiga kiruvchi ijod maktablari ko'rinishida farq va o'xshash taraflarini sinchiklab o'rganib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda umumiy va ijodiy maktablar uchun ingliz tili darsliklarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan materiallar qanchalik ta'minlanganligini tekshirish uchun qiyosiy tahlil tadqiqot metodologiyasidan foydalaniladi. Tadqiqot loyihasi kontentni tahlil qilish, darsliklarni baholash va ekspert xulosalarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda qiyosiy vaziyatni o'rganish usuli qo'llaniladi. Ijodiy maktablarda ham, umumta'lim maktablarida ham qo'llaniladigan ingliz tili darsliklari namunasi tahlil qilinadi va ularning tanqidiy fikrlash mazmuni baholanadi.

Kontentni tahlil qilish uchun maqsadli tanlab olish strategiyasi qo'llanildi. Umumiy va ijodiy maktablarning keng qo'llaniladigan darsliklari tanlab olindi. Har bir turdagi maktabdan kamida beshta darslik kiritildi, ular turli sinflarni qamrab oladi (masalan, 6–12-sinlar). Tanlov joriy o'qitish amaliyotiga mosligini ta'minlash uchun so'nggi besh yil ichida nashr etilganlarga e'tibor qaratildi.

Ma'lumotlar sifatli javoblar uchun tematik tahlil va darslik mazmuni uchun kontent chastotasi tahlili yordamida ko'rib chiqiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun taqdim etilgan materiallardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun natijalar ikki turdagi maktablar bo'yicha taqqoslanadi.

Ushbu tadqiqot tanqidiy fikrlash materiallarini ingliz tili darsliklariga integratsiyalashuvini yaxshilash, xususan, ushbu yo'nalishga ega bo'lmagan umumiy maktablar uchun tavsiyalar berishga qaratilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tanqidiy fikrlashning mohiyati va uning ta'limdagi o'rni. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – insonning chuqur va oqilona fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir [20]. Bu jarayon quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil qilish qobiliyati – ma'lumotlarni to'plash, ularni mantiqiy tartibga solish va mazmunini anglash.

2. Baholash qobiliyati – turli ma'lumotlar orasidagi farqni aniqlash, ularga nisbatan o'z pozitsiyasini ifodalash.

3. Muammolarni hal qilish qobiliyati – ijodiy yondashuv orqali yechimlarni izlash va qaror qabul qilish.

Bugungi kunda tanqidiy fikrlash nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, yuqori sinf o'quvchilari uchun tanqidiy fikrlash ularning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogic usullari. Pedagogik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Quyida eng samarali usullarga to'xtalamiz:

1. Sokratik seminarlar

Sokratik seminarlar o'quvchilarni ochiq muloqot va muhokamalarga jalb qilishga qaratilgan. Bu usulda o'quvchilar o'z fikrlarini asoslab berishga, qarashlarni baholashga va bir-birlarining mulohazalariga tanqidiy yondashishga o'rganadilar. Misol: biror adabiy asarni tahlil qilishda, "Muallifning asosiy g'oyasi nima?" kabi savollar orqali muhokama tashkil qilish.

2. Bahs vamunozaralar

Munozaralar orqali o'quvchilar muayyan masalalar bo'yicha turli qarashlarni o'rganadi, ularga tanqidiy yondashadi va o'z nuqtai nazarini himoyalaydi. Bahslar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

3. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning)

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarni bajaradilar. Bu usul ularni mustaqil fikr yuritishga va ijodiy yondashishga o'rgatadi. Masalan, ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha loyiha tayyorlash.

4. Rol o'ynash va simulyatsiyalar

Rol o'ynash o'quvchilarga muayyan vaziyatlarni boshdan kechirish imkonini beradi. Simulyatsiyalar esa o'quvchilarni real hayotga yaqin sharoitlarda qaror qabul qilishga o'rgatadi. Misol: xalqaro munozaralarni simulyatsiya qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda texnologiyalar roli. Texnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Quyidagi texnologiyalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi:

1. Onlayn platformalar

- Padlet – o'quvchilarning fikrlarini jamlash va tahlil qilish uchun qulay vosita.
- Kahoot! – o'quvchilarni mavzuga jalb qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun interaktiv o'yinlar.
- Mentimeter – anonym fikr almashinuvi va muloqotni rivojlantirish uchun mos platforma.

2. Mobil ilovalar va interaktiv vositalar

Mobil ilovalar orqali o'quvchilar murakkab masalalarni hal qilishga o'rganadi. Masalan, Duolingo va Quizlet yordamida til o'rganish jarayonida tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish mumkin.

3. Virtual haqiqat (VR) vakengaytirilgan haqiqat (AR)

VR va AR texnologiyalari orqali o'quvchilar turli muammolarni amaliy tajribalar asosida hal qiladilar. Masalan, tarixiy voqealarni tahlil qilish yoki ilmiy tajribalarni amalga oshirish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv mashqlar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus mashqlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Quyidagilarday mashqlarningayrimgayrimga keltirilgan:

1. Tahliliysavollar

O'quvchilarga "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollarni berish orqali ularni chuqur o'ylashga undash mumkin. Masalan, biror muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilish.

2. Jadval va xaritalar tuzish

O'quvchilar ma'lumotlarni guruhlash va ularni tahlil qilish orqali turli xulosalarga keladi. Misol: Word Map yoki Venn diagrammalar yordamida mavzuni tahlil qilish.

3. Ijodiy topshiriqlar

O'quvchilarga o'z fikrlarini ijodiy tarzda ifodalash imkonini beruvchi topshiriqlar berish. Masalan, biror voqeani qayta tasvirlash yoki muammoga ijodiy yechim topish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning sinfdagi amaliyoti. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun sinfdagi quyidagi amaliyotlar qo'llanishi mumkin:

- Guruhli ishlar – o'quvchilar birgalikda ishlash orqali bir-birining fikrlarini baholashni o'rganadilar.

- Loyiha ishlari – o'quvchilar o'zlariga berilgan loyihani yakunlash uchun turli manbalarni tahlil qilishlari kerak bo'ladi.

- Interaktiv muhokamalar – mavzuga oid turli fikrlarni jamlash va tahlil qilish.

XULOSA

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatga hissa qo'shuvchi shaxslarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va interaktiv mashqlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy vositalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ackerman J. M. The promise of writing to learn. Writ. Commun. 1993;10(3): 334–370.
2. Ackerman J. M. The promise of writing to learn. Writ. Commun. 1993;10(3): 334–370.
3. Champagne A., Kouba V., Mintzes J., Wandersee J., Novak J. Assessing Science Understanding: A Human Constructivist View. New York: Academic Press; 1999. Written product as performance measures; pp. 224–248.
4. E.R. Munandar and A. Munandar. Improving students' reading comprehension using scanning technique.
5. Ian J. Quitadamo and Martha J. Kurtz, Learning to Improve: Using Writing to Increase Critical Thinking Performance in General Education Biology
6. Keys C. W. Revitalizing instruction in scientific genres: connecting knowledge production with writing to learn in science. Sci. Educ. 1999;83(2):115–130.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). Critical Thinking and Pedagogy: A Contemporary View. Education Journal, 43(2), 111-128.
8. Langer, Judith A.; Applebee, Arthur N. How Writing Shapes Thinking: A Study of Teaching and Learning. NCTE Research Report No. 22.
9. Laser B1 Student's Book, Macmillan Publisher 2013
10. Marzano R. J. Fostering thinking across the curriculum through knowledge restructuring. J. Reading. 1991;34(7):518–525.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 124-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" nomli qarori
12. Paziljanova Zulfiya Sabirjanovnaning "Zamonaviy nemis tili darsliklari vositasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi" Qo'qon 2022
13. Prepare grade 9 Teacher's book Cambridge University Press va Uzbekistan education for excellence program hamda the United States Agency for International Development's Central Asia Office under Partnership Agreement 72011519C00004 p 4
14. Rivard L. P. A review of writing to learn in science: implications for practice and research. J. Res. Sci. Teach. 1994;31(9):969–983.
15. Smith, M. A. (2014). The Role of Critical Thinking in Second Language Acquisition. Linguistics Journal, 28(4), 87-102.
16. Syaadia Arifin Universitas Muhammadiyah Prof. Dr. Hamka, The Role of Critical Reading to Promote Students' Critical Thinking and Reading Comprehension.

17. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain. Addison-Wesley Publishing Company. Bloom, Benjamin S. 1956.
18. Thormann, Michael: Konzepte interkulturellen Lernens im Spiegel der Lehrwerkkritik. In: Wazel, Gerhard (Hrsg.): Institut für Interkulturelle Kommunikation: Interkulturelle Kommunikation in Wirtschaft und Fremdsprachenunterricht, Institut für Interkulturelle Kommunikation e.V. (Hrsg.). Frankfurt am Main. Wien u.a.: Lang, S.117. 2001
19. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: O'qituvchi, 1997. -B.183.
20. Paul, R., & Elder, L. (2008). The Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools. Foundation for Critical Thinking.
21. Facione, P. A. (2011). Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment.
22. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass.
23. Jonassen, D. H. (2011). Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. Routledge.
24. Kuhn, D. (1999). A Developmental Model of Critical Thinking. Educational Researcher, 28(2), 16–25.
25. Lipman, M. (2003). Thinking in Education. Cambridge University Press.
26. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
27. Fisher, A. (2011). Critical Thinking: An Introduction. Cambridge University Press.
28. Bailin, S., & Siegel, H. (2003). Critical Thinking. In N. Blake, P. Smeyers, R. Smith, & P. Standish (Eds.), The Blackwell Guide to the Philosophy of Education (pp. 181–193). Wiley-Blackwell.